

ILGARI SUDLANGAN SHAXSLAR O'RTASIDA
HUQUQBUZARLIKLARNING MAXSUS PROFILAKTIKASI CHORA-
TADBIRLARINING AMALDAGI HOLATI

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 311-guruh kursanti
Yusupov Jahongir Bahodir o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqola profilaktika inspektorlarining ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarining amaldagi holati tushunchasi, mazmuni va mohiyati, tashkil etishning maqsad va vazifalari, amaliyotda hozirgi kundagi ahvoli va huquqiy jihatdan tartibga solinganligi hamda Ichki ishlar sohaviy xizmatlari bilan hamkorlikni huquqiy ta'minlashni tashkil etilishini va ushbu faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirish uchun muammo va takliflar yoritib o'tilgan.*

Annotation: *This article describes the concept, content and essence of preventive inspectors' current state of measures for the special prevention of offenses among previously convicted persons, the goals and objectives of the organization, the current situation in practice and legal regulation, as well as the legal definition of cooperation with the internal affairs services. The problems and suggestions for improving the organization of provision and improving this activity have been highlighted.*

Kalit so'zlar: *profilaktika inspektori, ilgari sudlangan shaxs, maxsus profilaktika, hamkorlik, huquqiy ta'minlash, huquqbuzarliklar, huquqbuzarliklar profilaktikasi subektlari, jazoni ijro etish muassasasi.*

Mamlakatimizda jinoyatchilika qarshi kurash va uni oldini olish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonunning qabul qilinishi buning yorqin ifodasi sifatida baxolashimiz mumkin. Qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasining chora-tadbirlari belgilangan bo'lib, ular ichida maxsus profilaktik chora-tadbirlar aloxida o'ringa ega. Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining faoliyati zamon talablariga javob bera oladigan darajada, mazmun-mohiyatiga ko'ra keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini taminlash va jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jixatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoniga asosan IIV Huquqbuzarliklar Profilaktikasi Bosh Boshqarmasi yangi tashil yetilgan Jamoat xavfsizligi Departamenti tarkibiga kiritildi va uning tarkibiy tuzilishi, funktsiya va vazifalari va ushbu faoliyatning huquqiy asoslari zamon talablari darajasiga javob bera oladigan darajada shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, ichki ishlar organlarining jamiyatdagi roli va mavqe'ini ko'tarish, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishda jamoatchilik va aholi bilan bo'ladigan aloqasini mustahkamlash imkonini berdi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, shaxslar toifalarining ko'payishi;

-jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishida ko'rishimiz mumkin.

Ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo'yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

- ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish jamoat tartibi, fuqarolar huquqlari, yerkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini taminlashda ularni masuliyatini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF 5005-sonli Farmoni, 2017 yil 12 apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 2883-sonli Qarori, 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi PQ 2896-sonli Qarori qabul qilindi. Jumladan, 2896-sonli Prezident qarori natijasida Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining tarkibiy tuzilishi funktsiya va vazifalari, huquqiy asoslari ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olishdagi faoliyati zamon talablari darajasiga javob beradigan darajada shakllantirildi.

Ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni mazmun mohiyatiga ko'ra o'rganish mumkin: Ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari faoliyatining yo'nalishlarini huquqiy tartibga soluvchi qonunlar. Mustaqillik yillarida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni kompleks jihatdan tartibga soluvchi asosiy qonun hisoblanadi. Qonunda umumiy qoidalar, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari, asosiy prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar, ularning vakolatlari, yakuniy qoidalar belgilab berilgan.

Profilaktika inspektorlari tomonidan ilgari sudlangan shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkil etishda ular jazoni o'tagandan so'ng turli chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilmaligi, ularni yana o'z jinoiy faoliyatini davom ettirishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida fuqarolar xafsizligiga va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu nuqtayi nazardan qayta jinoyat sodir etib, jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shab chiqqan ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan axloq tuzatish ishlarini samarali qo'llash, ularni ozodlikka chiqqanlaridan keyingi dastlabki davrda jamiyatga ijtimoiy ko'nikib olishlariga yordam berish, shuningdek xulq-atvori ustidan nazorat olib borish bilan birga ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish yuzasidan yordam berishni choratadbirlari va amalga oshirish talab etiladi. Chunki ilgari sudlangan shaxslar tomonidan jinoyatlarning takror sodir etilishi bunday shaxslar jinoiy faoliyati va jinoiy sheriklaridan voz kechmaganliklarini, shuningdek, ularda jamiyatga zid qarashlarning mavjudligini ko'rsatadi. Ammo bu holat takroran jinoyat sodir qilayotgan ilgari sudlangan shaxslarning taqdiriga befarq bo'lish, ularga nisbatan hech qanday g'amho'rlik qilishning zarurati yo'q degan xulosani bermaydi. Aksincha, qayta jinoyat sodir etuvchi bunday shaxslar o'sgan muhit, ularning jinoyat sodir etishiga sabab bo'lgan omillarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish zarur. Axolining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla fuqarolar yig'inlari va hududiy profilaktika inspektorlarining hamkorlikdagi faoliyati samaradorligini yanada oshirish, shu soxadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Ma'lumki huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risidagi qonunda bevosita fuqarolarning ham huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga ko'maklashishi va zarur yordamni ko'rsatish orqali huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etishi belgilab o'tilgan. Mamlakatning ichki xavfsizligiga ko'p hollarda huquqbuzarlik yoki jinoyatlar sodir etilishi jiddiy xavf tug'diradi. Shunday ekan, mamlakat xavfsizligini ta'minlash yo'lida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga har bir fuqaro ma'suldir. Modomiki, jamiyat muayyan hududda yashayotgan shaxslar uyushmasidan tashkil topar ekan, u holda o'sha hududda o'sha davrda yashovchi har bir shaxs shu jamiyatning xavfsizligi va barqarorligi uchun ma'suldir. Ushbu ma'suliyatni har bir inson vijdon amri va qonunlar ta'sirida his qiladi. Bu esa insonga pok vijdonni shakllantirish va salmoqli ta'sir kuchiga ega jamiyat qonunlarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy hayotga joriy etish

talabini qo'yadi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ilgari sudlangan shaxslarni ish bilan ta'minlashda ularning ishga joylashishni, joylashgan taqdirida esa bormaslik holatlari yoki ularni biror bir faoliyat bilan shug'ullanishda kridet olish masalalari bo'yicha bir qator muammolarning mavjudligi tufayli ushbu toifadagi shaxslarga banklar tomonidan alohida kridetlar ajratish, ular ishlayotgan joydagi ularga murabbiy etib tayinlangan shaxslarni ish faoliyatini nazorat qilib borish kabi choratadbirlari ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish kelgusida retsidiv jinoyatchilikning oldini olinishiga, JIEMdan bo'shatilgan ilgari sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatning sabab va sharoitlarini aniqlash va bartaraf etishda namoyon bo'ladi va bunga qo'shimcha sifatida quyidagi chora-tadbirlar orqali ularning bunday huquqbuzarliklar yoki jinoyatlarning oldini olishda samarali choratadbirlariga xizmat qiladi: - ilgari sudlangan shaxslar JIEMdan ozod etilganlaridan keyin ularni ijtimoiy hayotga ko'niktirish borasida maxalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan muntazam hamkorlik qilish mexanizmining ishlashini ta'minlash; - ushbu toifadagi ilgari sudlangan shaxslarning hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi kriminogen vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlash, bartaraf etish, ta'sirini kuchsizlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish; - ilgari sudlangan shaxslarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazilayotganliklarini oila a'zolari, qarindosh-urug'lari va jamoatchilik vakillari yordamida muntazam nazorat qilib turish, yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirishni samarali tashkil etish; - diniy ekstremizm bilan bog'lik jinoyatni sodir etib jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktika chora -tadbirlarni olib borishda ularga diniy komitadan mutaxasis murabbiy kilib biriktirib bu toifadagi shaxslar endilikda jinoyatga qo'l urmasligi uchun yetarli bilimlar berib borish maqsadga muafiq bo'ladi. - ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibi va qoidalariga to'liq amal qilish, ularga nisbatan o'rnatilgan maxsus profilaktik chora-tadbirlarni o'z vaqtida olib borish, shuningdek ularga nisbatan o'rnatilgan qonuniy cheklashlarni to'g'ri tanlash zarur bo'ladi.